

**INGLIZ ERTAKLARIDAGI SPELLONIMLAR:  
LINGVOMADANIY MEROS KONTEKSTIDA TAHLILI**

*Odilova Nozima Nizomiddinovna*

*Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti ingliz tili o‘qituvchi;  
odilovanozimaxonim@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ingliz zamonaviy ertaklarda spellonimlar estetik, mafkuraviy va simvolik vazifalarni bajarish bilan bir qatorda, asarning janriy xususiyatlarini ham belgilaydi. Ular orqali asarning mazmun va mohiyati boyiydi, ma’naviy g‘oya kuchayadi va asar janri aniqroq namoyon bo‘ladi. Shu sababli sehrli obrazlarni tahlil qilish adabiy asarlarning tuzilishini, janriy mansubligini va ma’no qirralarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Spellonimlar asar janrini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Spellonimlar haqida so‘z borarkan xalq og‘zaki ijodi na‘munalari, ertaklar rivoyatlardagi sehrli obrazlarga murojaat qilamiz.

**Kalit so’zlar:** spellonimlar, sehrli obrazlar, janr, simvolik vazifalar, xalq og‘zaki ijodi.

**Аннотация:** В современных английских сказках спеллонимы выполняют не только эстетические, идеологические и символические функции, но и определяют жанровые особенности произведения. Благодаря им содержание и смысл произведения обогащаются, усиливается духовная идея, а жанровая принадлежность становится более выраженной. Поэтому анализ волшебных образов способствует более глубокому пониманию структуры литературных произведений, их жанровой принадлежности и смысловых аспектов. Спеллонимы играют важную роль в определении жанра произведения. Говоря о спеллонимах, мы обращаемся к образцам устного народного творчества — сказкам и преданиям, содержащим волшебные образы.

**Ключевые слова:** спеллонимы, волшебные образы, жанр, символические функции, устное народное творчество.

Ajdarho — bu qadim zamonlardan beri dunyo xalqlari og‘zaki ijodi, afsona, ertak, doston va diniy tasavvurlarida uchrab keladigan afsonaviy mavjudotdir. U o‘zida nafaqat yovuzlik va xavfni, balki kuch, donolik, sir-sinoat va kosmik kuchlar bilan bog‘liq ramziy ma’nolarni ham mujassam etgan. Ajdarho obrazining madaniyatlararo tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu timsol G‘arb va Sharq tafakkurida turlicha talqin qilingan: Yevropa folklorida ajdarho ko‘pincha yovuz va vayronkor mavjudot sifatida gavdalanim, qahramon tomonidan yengilishi kerak bo‘lgan sinov sifatida namoyon bo‘ladi, Sharq madaniyatlarida esa u donolik, baxt, tabiiy kuchlar bilan uyg‘unlik va hokimiyatining timsoli bo‘lib xizmat qiladi.

Folklorshunoslar, mifologlar va psixologlar ajdarho obrazini insoniyat ongingin chuqur qatlamlaridagi arxetipik ramz sifatida baholaydilar. Masalan, Jozef Kempbell ajdarholi qahramonlik sayohatining ajralmas qismi, Karl Gustav Yung esa inson ichki “soyasi”ning timsoli sifatida tahlil qilgan. Vladimir Propp esa rus xalq ertaklari morfologiyasida ajdarholi dramatik kurash bosqichining asosiy elementi sifatida ko’rsatadi.[1]

Ajdarho obrazining o’ziga xosligi shundaki, u insoniyat tarixida doimiy o’zgarib, zamon, mintaqa va madaniyatga mos holda turli shakllar va ma’nolarda namoyon bo’lgan. Shu bois ajdarho timsolining madaniyatshunoslilik, mifologiya va psixologiya nuqtai nazaridan o’rganilishi, xalq ijodi va qadimiy tasavvurlarni tahlil qilishda muhim ilmiy manba bo’lib xizmat qiladi. Sharqdagi eng mashhur ajdaholardan biri bu — ilonsimon tanali va soqolli yuzga ega bo’lgan Xitoy ajdahosidir. Xitoy afsonalariga ko’ra, to’rt asosiy turdag'i ajdaho yer va osmonni boshqaradi. Tyan-lun (samoviy ajdaho) osmonni qo’riqlaydi; shen-lun (ruhiy ajdaho) osmonga hukmronlik qiladi; dilun yer, daryo va soylarni nazorat qiladi; fu-tszan-lun esa yer ostidagi chuqur g’orlarda qimmatbaho toshlar va metallarni yig‘ib saqlaydi.[2]

Afsona va rivoyatlar ajdaho qanday qilib olov purkashini aniq tushuntirib bera olmaydi. “Haqiqatga aylangan xayolot” deb nomlangan maxsus dasturining yaratuvchilari ajdaholar bo'yicha mutaxassis va biolog Piter Hogart bilan hamkorlikda bir nazariyani ilgari surdilar. Ular ajdaho tanasida maxsus qoplarda saqlanadigan katta miqdordagi vodorod gazi yordamida olov purkashi mumkin deb taxmin qiladilar. Ajdaho olov purkash uchun oson yonadigan vodorodni tashqariga purkash uchun va vodorodni yoqish uchun ajdaho tishlari orasida platina kabi minerallarni maydalaydi. Bu mineral uchqun hosil qiladi va shu uchqun vodorod gazini yoqib yuboradi.[3]

Folklorshunos olim R.Storm Sharqiy Osiyo va Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlarining qadimiy miflari va ertaklarni o’z ichiga olgan keng qamrovli “Asian Mythology” kitobida: “Xitoy ajdahosi 360 ta tangachali sehrli mavjudot bo’lib afsonaviy ierarxiyada birinchi o’rinda turgan. U to’rt asosiy yo’nalishni ifodalovchi hayvonlardan biri bo’lgan. Sharq yo’nalishi bilan bog’liq bo’lgan ajdraho tong otishi, bahor va serhosillikni anglatgan, va unga qarama-qarshi yo’nalishda, g’arbni ifodalovchi oq yo’lbars — o’lim ramzi edi. Daoistik ajdarholar insonlarga mehribon bo’lgan, baxt va farovonlik olib keluvchi ruhlar hisoblangan. Biroq buddizm ommalashgach, ularning xarakteri hindlarning tahdidli mavjudot bo’lgan naga haqidagi tasavvurlari ta’sirida o’zgardi. Xalq ertaklarida (spellonim) Long Van (Ajdraho podshohlari) hayot va o’lim ustidan hokimiyatga ega bo’lgan — ular yomg’ir uchun javobgar edi, yomg’irsiz esa hayot davom etolmasdi, shuningdek ular dafn marosimlari bilan bog’liq bo’lgan. Ular daryolar, ko’llar va okeanlarning xudolari sanalgan”. [4]

Ajdarhoga oid rivoyatlar va ertaklar nafaqat asrlar davomida shakllangan Xitoy

tarixi va madaniyatini o‘zida aks ettiruvchi qiziqarli hikoyalarni taqdim etadi, balki tarixga ta’sir ko‘rsatgan mashhur shaxslarning qalbi va tafakkuriga ham nazar tashlash imkonini beradi. Bu ertaklarninglarning aksariyati insonning topqirligi, sobitqadamligi, donoligi va jasoratini namoyon etadi. Folklorshunos,yozuvchi Lin Shan o‘zining “Dragon tales” kitobida Ajdarhoga oid rivoyatlar va ertaklar nafaqat asrlar davomida shakllangan Xitoy tarixi va madaniyatini o‘zida aks ettiruvchi qiziqarli hikoyalarni taqdim etadi, balki tarixga ta’sir ko‘rsatgan mashhur shaxslarning qalbi va tafakkuriga ham nazar tashlash imkonini beradi. Bu rivoyatlarning aksariyati insonning topqirligi, sobitqadamligi, donoligi va jasoratini namoyon etadi.

Xitoy olimi Van Fu (miloddan avvalgi 206-yil – milodiy 220-yil) Han sulolasi davrida yashagan va u har bir Xitoy ajdahosi to‘qqizta hayvonning aralashmasi deb ta’riflagan. Ajdaholar bo‘yicha yetakchi mutaxassislardan biri Karl Shuker bu fikrni yanada batafsil tushuntiradi: “Xitoy ajdahosining boshi tuyaga o‘xshaydi, ko‘zlar esa jinlarning ko‘zlariga, quloqlari sigirnikiga o‘xshaydi, shoxlari bug‘uning shoxlariga o‘xshab tarmoqlanib ketgan, bo‘yni ilonni eslatadi, qorni esa mollyuskaniki kabi.

Turli xalqlarning folklorida ajdaholar har xil ko‘rinishda tasvirlangan — ayrimlari qanotli va olov purkaydigan, boshqalari esa uzun va ilonsimon bo‘lib, zaharli nafasga ega degan tushuncha bo‘lgan. Ingliz folkloridagi mashhur ajdarho timsoli — Avliyo Georgiy tomonidan yengilgan ajdararo va Britaniya orollaridagi boshqa ajdarholarning o‘xhashliklari va farqlari haqida so‘z yuritamiz.

Ingliz folklorida Avliyo Georgiy tomonidan o‘ldirilgan ajdarho — heraldic (tamg‘dali) ajdarho bo‘lib, u ko‘rshapalak qanotlariga, dumida chaqadigan nayzaga va og‘zidan olov purkash xususiyatiga ega edi. Bunday ajdarhoni ba‘zi ingliz ertaklarida uchratamiz, shuningdek, cherkov o‘ymakorligida va Avliyo Georgiyni tasvirlovchi ko‘plab italyan rasmlarida, masalan, Karpachchoning rasmida ko‘rish mumkin — bu yerda ajdaho noodatiy ravishda kichkina jussali qilib tasvirlangan. Shunga qaramay, Britaniya ajdaholarining aksariyati — skandinavcha andozadagi “wurm” (ilonsimon ajdaholar) bo‘lib, ular qanotsiz, odatda juda uzun, olov emas, balki zaharli nafasga ega va o‘zini tiklay oladigan mavjudotlardir. Kelt ajdaholarining deyarli barchasi ham “wurm” turiga mansub.<sup>1</sup>

“Wurm”lar va ajdaholarning umumiy jihatlari mavjud: har ikkalasi tangachali, ikkalasi ham quduq yoki hovuz atrofida yashaydi, ikkalasi qizlar, ayniqsa, malikalarga qiziqadi, ikkalasi ham xazina qo‘riqlaydi va ularni o‘ldirish nihoyatda mushkul. Go‘yo bu ikkala mavjudot ham tarixdan oldingi davr yirtqichlarining qotib qolgan qoldiqlariga asoslangan modeldan kelib chiqqandek tuyuladi.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, ingliz xalq og‘zaki ijodi va ertaklarida uchraydigan ajdarholarning turlari va imkoniyatlari turlicha bo‘lgan.

VIII va XIX asrda yashagan va halqaro halq og‘zaki ijodi na‘munalari yig‘ib

ilmiy izlangan folklorshunos R.Tongue ertaklardagi ajdarho sehrli obrazlarini tahlil qilgan. Solway ajdarhosи ulkan bir dengiz iloni bo‘lib barcha baliqlarni, baliqchilarni va qush ovchilarni yeb ketardi. Odamlar och qolishardi, u dengiz o’ti bilan oziqlanish uchun tushgan har qanday mol-holni ham tortib ketardi. Bu ertakni 1947-yil atrofida Workingtonlik otboqar (ot parvarishi bilan shug‘ullanuvchi) Jeyms Metkalf so‘zlab bergen.

**Foydalaniлgan adabiyotlar:**

1. Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Л.: из-дво ЛГУ, 1986. – 366 с.
2. Shuker, K. P. Mysteries of Planet Earth. Carlton Publishing Group. 2002. -P.119
3. Mooney, C. Dragons. ABDO Publishing Company. -2014 -P.15
4. Lin, S. Dragon Tales: China’s History from Tang to Qing. – 2001– P.–188-189